



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING  
BUYRUG'I**

2024 - yil « 28 » oktabr

399 -son

Toshkent shahri

**O'zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni  
tatbiq etiladigan tashkilot va muassasalar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida**

O'zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini tashkil etish ishlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi yig‘ilishining 2024-yil 10-oktabrdagi 94-I-son bayonida belgilangan topshiriqlarning ijrosini ta‘minlash maqsadida

**BUYURAMAN:**

1. O'zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni 1-moddasiga muvofiq:

a) ushbu Qonunning amal qilishi davlat organlariga va mahalliy davlat hokimiyyati organlariga, davlat muassasalariga, davlat unitar korxonalariga, davlat maqsadli jamg‘armalariga, shuningdek ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz miqdorda va undan ortiq bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlariga (keyingi o‘rinlarda – davlat organlari yoki boshqa tashkilotlar) nisbatan tatbiq etilishi;

b) ushbu Qonunning amal qilishi:

o‘z ustav fondida (ustav kapitalida) davlat organlarining yoki boshqa tashkilotlarning ulushi jami 50 foiz miqdorda va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslarga nisbatan;

o‘z ustav fondida (ustav kapitalida) ushbu modda uchinchi qismining ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan tashkilotlarning ulushi jami 50 foiz miqdorda va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslarga nisbatan faqat ularning davlat xaridlari sohasidagi munosabatlariga tatbiq etilishi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni tatbiq etiladigan tashkilot va muassasalar ro‘yxati (keyingi o‘rinlarda – Ro‘yxat) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ro‘yxatda keltirilgan tashkilot va muassasalarning birinchi rahbarlari o‘zlarini rahbarlik qilayotgan tashkilot va muassasalarda manfaatlar to‘qnashuviga olib kelishi mumkin bo‘lgan holatlarni barvaqt aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha qat’iy choralar ko‘rib borsin.

4. Ro‘yxatda keltirilgan tashkilot va muassasalar:

o‘z ishini “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni talablari asosida tashkil etsinlar va xodimlar faoliyatida manfaatlar to‘qnashuvi holatlarining oldini olish bo‘yicha cheklov larga rioya etilishini ta’minlasinlar;

aniqlangan manfaatlar to‘qnashuviga olib kelishi mumkin bo‘lgan holatlarni tezkor bartaraf etish choralarini ko‘rib borsinlar.

5. O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining 2024-yil 10-iyundagi 12/1-1880-sod topshirig‘iga muvofiq tashkil etilgan **ishchi guruh a’zosi** (Parmanov) Ro‘yxatda keltirilgan tashkilot va muassasalar tizimida Qonunda belgilangan talablar va mexanizmlarni amaliyotga joriy etish bilan bog‘liq masalalarni, xususan, xodimlar uchun o‘rnatilgan cheklov larga so‘zsiz rioya etilishi ahvoli va manfaatlar to‘qnashuvi holatlariga yo‘l qo‘ymaslik borasida ko‘rsatilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini tizimli o‘rganish ishlarini davom ettirsin hamda har chorak yakuni bo‘yicha Respublika idoralararo komissiyasiga axborot kiritib borilishini ta’minlasin.

6. Ushbu buyruq ijrosining nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

Vazir

K. Sharipov



NUSXA  
ASLIGA TO‘G‘RI



Oliy ta'lism, fan va innovatsiyalar vazirinining  
2024-yil 28-oktabrdagi 99-sod buyrugiga  
ilova

## **O'zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni tatbiq etiladigan tashkilot va muassasalar RO‘YXATI**

1. Oliy attestatsiya komissiyasi.
2. Ilg‘or texnologiyalar markazi.
3. Innovatsiyalarni joriy qilish va texnologiyalar transferi milliy ofisi.
4. Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi.
5. “INNO” texnopark MChJ.
6. Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi.
7. Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazi.
8. Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti.
9. Talaba va o‘quvchilarining ijtimoiy faolligini oshirish markazi.
10. Oliy va professional ta’lim muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash markazi.
11. Raqamli ta’lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi.
12. Professional ta’limni rivojlantirish instituti.
13. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, viloyatlar hamda Toshkent shahar oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmalari.
14. Davlat oliy ta’lim tashkilotlari.
15. Kasbiy (professional) ta’lim tashkilotlari.